

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
qo'mondoni o'rinbosari Milliy gvardiya bosh
boshqarmasi boshlig'ining 2019 yil 07 avgustdagi
42-son buyrug'iga O'zlashtirish bosh
ILOVA

Qo'riqlash xizmati ko'rsatish bo'yicha

SHARTNOMA

Urganch sh. 6438-son

Xorazm viloyati Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshlig'i B.M.Xasanov (keyingi o'rinlarda Ibrochi deb yuritiladi) bir tomondan Xorazm viloyati SEO va JSX boshqarmasining Urganch shahar bo'limi boshlig'i A.Jsmatlov (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1-bob. SHARTNOMA PREDMETI

1. Ibrochi Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati texnik qo'riqlash markazidan (keyingi o'rinlarda TQM deb yuritiladi) foydalangan holda Buyurtmachingin mulkini qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, Buyurtmachi esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarini amalga oshirish majburiyatini oladi.

2-bob. UMUMIY SHARTLAR

Buyurtmachi: Urganch shahar O'zbekiston ovozi ko'chasi 60-uyda joylashgan Xorazm viloyati SEO va JSX boshqarmasining Urganch shahar bo'limiga qarashi Ximiyaviy reaktivlarni saqlash xonasini tashvish tugmasi orqali 6 soat 2 dam olish bilan (ish kunlari 09:00 dan 15:00 gacha) qo'riqlash uchun (keyingi o'rinlarda Ob'ekt deb yuritiladi) Ibrochiga topshiradi, Ibrochi qabul qiladi.

Ob'ektning qo'riqlash chegaralari (imoratlari, qurilmalari), postlarining (yo'nalishlari) joylashuvi chizma-rejada ko'rsatiladi va mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ob'ektdagi kirish-chiqish, ichki ob'ekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish-chiqish va ichki ob'ekt rejimini tashkil etish to'rtinmashiga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazkur Shartnomaga ilova qilinib uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ob'ektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, texnik qo'riqlash vositalari Ibrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollar bundan mustasno. Ob'ektni yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ob'ektni qo'riqlashda Buyurtmachi bilan kelishilgan holda soqchi italaridan foydalanish mumkin.

Mazkur Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, ob'ektda ish kuni ichida Milliy gvardiya xizmati qo'riqlash turi va harbiylashtirilgan qo'riqlash ob'ektiga ish kuni ichida yo'lga qo'yiladi.

Buyurtmachi ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan talablarni bajarmaganda Ibrochi qo'yilmaydi, qo'yilgan Ibrochi esa chaqirib olinadi.

3-bob. TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH

Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

Qo'riqlash xizmati uchun oyiga 403 566 (to'rt yuz uch ming besh yuz oltmish olti) so'm

3 o'yinga 1 210 698 (bir million ikki yuz o'n ming olti yuz to'rtinmashiga) so'm

Ibrochi xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

Buyurtmachi (xo'jalik hisobidagi, byudjet tashkiloti) yoki byudjet mablag'lari oluvchi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan qo'riqlash xizmati uchun oylik to'lovning 100 foiz miqdorida

Ibrochi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin to'lovni amalga oshiradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblangan Buyurtmachi mazkur Shartnomaning 9-bandi talablarida ko'rsatilgan oylik to'lovni to'lamasa hamda 11-bandiga o'z vaqtida ro'ya qilmasa, Ibrochi Buyurtmachi akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir. Mazkur Shartnoma bekor qilingan hollarda Ibrochi buyurtmachi bilan to'langan to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur.

4-bob. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

Ibrochidan belgilangan qo'riqlash tartibiga ro'ya etilishini talab qilish;

xizmat ko'rsatish jarayonida Ibrochining xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlarini to'xtatish va yo'l qo'yilgan kamchiiklarni bartaraf qilish bo'yicha kerakli choralar ko'rilishini Ibrochidan talab qilish;

Ibrochining xizmatini tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini nazorat qilish; Ibrochi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha Ibrochining vakili ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ibrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiiklar aniqlangan taqdirda Ibrochidan ularni bartaraf etishni talab qilish;

Ibrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni undirish.

Buyurtmachingin majburiyatlari:

Mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 2022 yil «28» yanvar dagi ko'zdan kechirish dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan ob'ektni, alohida xonalarni texnik mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (ob'ektning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunalari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, ob'ekt perimetri bo'ylab kerakli yoritish vositalari, qulflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarning shaxsiy buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar) bilan jihozlash va zarur hollarda ularni ta'mirlash hamda qo'riqlash xizmatini olib borayotgan xodimlarga alohida xona ajratilishini (qo'riqlash xizmatini to'g'ri tashkilkilashirishni yuzasidan) ta'mirlash;

har qanday moddiy qimmatliklarni ob'ekt hududining devor to'sig'idan metr uzoqlikda (ob'ekt joylashuvini hisobga olgan holda) joylashtirish;

Ibrochi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta ob'ektning texnik mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanganini, shu jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi holatini tekshirish ko'rigini o'tkazish, aniqlangan kamchiiklarni bartaraf etish muddatlari, Ibrochini bu haqda xabarдор qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda Tomonlarning vakillari ishtirokida dalolatnoma tuzish;

belgilangan qo'riqlash rejimi talablarni bajarish (PRITOK-A qurilmasiga ulangan raqam hisobini o'z vaqtida to'ldirish) va texnik qo'riqlash vositalarining soz holatida saqlanishini ta'mirlash;

binoda rejalashtirilayotgan kapital ta'mirlash ishlari, ob'ektlarni qayta jihozlash, ish rejimini va ishlar profilini o'zgartirish, moddiy qimmatliklarni saqlash, joyini o'zgartirish yoki yangilarini ochish, ob'ekt yoki uning bir qismini boshqa shaxslarga ijaraga berish yoki mulk huquqini o'tkazish, qo'riqlash turini, postlar dislokatsiyasini o'zgartirish yoki qo'shimcha qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi haqida Ibrochini bunday ishlarining boshlanishidan kamida kun oldin ogohlantirish;

ob'ektda ish kuni yakunida qo'riqlash signalizatsiyasini yoqish, uning nosozligi holatida bu haqda Ibrochini ogohlantirish va nosozlik bartaraf etilmagunga qadar ob'ektni tashlab ketmaslik va belgilangan tartibda qo'riqlashga topshirish. Ob'ektni qo'riqlashga topshirganlik haqida TQM ni habardor

5 daqqadan so'ng ob'ektning qo'riqlashga qabul qilinganligi haqida ishonch hosil qilish;

ob'ektni, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan har bir alohida xonani kumdalik qo'riqlashga topshirish, eshiklar qulfi, derazalar, darchalar, lyuklar, ventilyasiya qilib,

teshiklari yopilganligi hamda avtonom qo'riqlash signalizatsiyasini va hududning yoritilishi holatini tekshirish, qo'riqlanadigan binolarda elektr jihozlarning, boshqa yong'in manbalarini yoqilgan holda qolib ketishining oldini olish va begona shaxslarning ob'ektda qolishiga yo'l qo'ymaslik;

qo'riqlanayotgan hududda binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatda qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qo'riqlashga topshirish;

maxsus jurnalda o'z vakili tomonidan imzo qo'yish yo'li bilan ob'ektlarni, alohida xonalarni qo'riqlashga topshirish, qo'riqlash tugagandan so'ng qo'riqlashdan chiqarish;

qo'riqlanadigan xonalarning butunligi buzilganligi haqida yoki ob'ektga begona shaxslarning kirishi natijasida zarar yetkazilganligi alomatlari mavjud bo'lganda zudlik bilan Ijrochini xabardor qilish va ob'ektga Ijrochi vakili etib kelguniga qadar ko'rsatilgan joylarning daxlsizligini ta'minlash;

begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tamoyillari va tizimini, shuningdek berilgan pult raqamlarini oshkor qilmaslik;

Ijrochi vakillarini ob'ektdagi ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalarini bilan ularning o'z vazifalarini bajarishga oid qisim bilan tanishtirish.

15. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachi bilan ob'ektda o'rnatilgan kirish-chiqish va ichki tartibga rioya qilinishini talab qilish;

belgilangan qo'riqlash rejimi talablarini bajarish (PRITOK-A qurilmasiga ulangan raqam hisobini o'z vaqtida to'ldirish) ni va texnik qo'riqlash vositalarining soz holatida saqlanishini talab qilish;

mazkur Shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotlar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan qo'riqlash-texnika vositalarini joriy qilish bo'yicha Buyurtmachi tavsifalar berish.

16. Ijrochining majburiyatlari:

ob'ektda postlar distokatsiyasiga (patrul yo'nalishiga) muvofiq qo'riqlash naryadimi joriy etish;

mazkur Shartnomada va uning ilovalariga muvofiq ob'ektni hamda qo'riqlashga topshirilgan moddiy qimmatliklarni qo'riqlashni tashkil etish va ta'minlash;

qo'riqlanayotgan hududdagi, lekin binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatini tekshirib, qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qabul qilib olish;

ob'ektda kirish-chiqish va ichki tartibga rioya etish, ob'ekt hududiga belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kiritilishi va ehiqilishini nazorat qilish;

propusk rejimi mavjud bo'lgan ob'ektlarda kun davomida nazoratdan o'tkazish punktidan bir martalik kirish ruxsatnomasi bilan ob'ektga kiritilgan tashrif buyuruvcilarining chiqib ketishini ta'minlash;

ob'ektni qo'riqlash vaqtida joydagi yong'in xavfsizligi qoidalarining bajarilishini ta'minlash; ob'ektda yong'in chiqishi yoki yong'in bo'lgan yoki qo'riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi holatida zudlik bilan yong'in bo'limiga yoki Buyurtmachi xabar berish;

ob'ektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan Buyurtmaching vakilini chaqirish va ob'ektning daxlsizligini ta'minlash;

yong'in qo'riqlash signalizatsiyasi ishlab ketgan holatlarda signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va ob'ektni qayta topshirish uchun Buyurtmachi vakilini chaqirish, tekshirish natijalari va ob'ektni qayta topshirish bo'yicha ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochining xodimlari tomonidan xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekspirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini ta'minlash;

ob'ektni qo'riqlashga qabul qilganda va topshirganda ob'ektdagi texnik mustahkamlash bo'yicha va qo'riqlashning texnik vositalari bilan bog'liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachi xabardor qilish;

Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta ob'ektning texnikaviy jihatdan mustahkamligini, qo'riqlash texnik vositalari bilan ta'minlanishini, jumladan yong'in dan qo'riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko'rigini o'tkazish, Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari hamda Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda tomonlarning vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablarining har bir buzilishi bo'yicha Ijrochi va Buyurtmaching vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish va bir nusxasini Ijrochining rahbariga tegishli choralar ko'rish uchun berish;

qo'riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka yetkazilgan zarar to'g'risida Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati navbatchilik qismiga va Buyurtmachi zudlik bilan xabar berish, Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati vakili yetib kelgunga qadar hodisa yuz bergan joyning daxlsizligini ta'minlash.

5-bob. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

17. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan summanning Buyurtmachi tomonidan o'z vaqtida to'lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

18. Ijrochining xodimi postda va patrul yo'nalishlarida assosiz bo'lmaganida Ijrochi Buyurtmachi haq bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to'laydi, biroq bunda ko'rsatilgan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

19. Penya to'lash Buyurtmachi va Ijrochini o'z majburiyatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

20. Ijrochi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachi yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi.

Ijrochining aybi bilan zarar etkazilganligi aniqlangan hollarda zararining to'liq miqdorida qoplanadi.

21. Ijrochining aybi bilan yetkazilgan zararining miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo'lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

22. Quyidagi hollarda Ijrochi zararni qoplamaydi:

Ijrochi Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini to'liq bajargan bo'lishiga qaramasdan zarar uchunchi shaxslarning jinoiy harakatlari natijasida yetkazilgan bo'lsa va bu sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlansa;

qabul qilish-topshirish jurnalida qayd etilmagan mulkka zarar yetkazilganda;

buyurtmaching xodimlari tomonidan yoki ularning aybi bilan zarar etkazilganda.

23. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan neustoyka (jarima, penya) to'lash hamda zararni qoplash Tomonlari Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6-bob. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

24. Mazkur Shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida tarafflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

7-bob. FORS-MAJOR

25. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-majbor) oqibati hisoblanisa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

26. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kum ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajaraganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

27. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaz kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major uch oy davom etsa Tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

8-bob. YAKUNIY QOIDALAR

28. Mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Mazkur Shartnoma byudjet tashkilotlari yoki byudjet mablag'lari oluvchilari bilan tuzilgan buyurtmachilar tomonidan g'aznachilik bo'limlaridan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi.

Mazkur Shartnoma g'aznachilik bo'limlaridan ro'yxatdan o'tkazilmagan taqdirda Buyurtmachi tomonidan Shartnomaning 3-bob 9, 11-bandlarida ko'rsatilgan talablarga o'z vaqtida rioya qilishdan ozod etmaydi.

29. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda Buyurtmachi va Ijrochining vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.

Tomonlar mazkur Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifiga ikkinchi tarafdin rad javobi olingandan keyingina yoki o'ltiz kumlik muddatda javob olmaganidan keyin, Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabini sudga taqdim etishi mumkin.

30. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha - tomonlar tarafdin imzolangan kundan boshlab - I (bir) yil muddatga;

byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilari bo'yicha - belgilangan tartibda Moliya vazirligi g'aznachilik bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yilning 31 dekabr kumioxirigacha.

Buyurtmachi xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lgan taqdirda Buyurtmachi mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Ijrochiga Shartnoma muddati tugashidan 60 kum oldin yozma ravishda ma'lum qilmasa, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va xuddi shu shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi.

Buyurtmachi byudjet tashkilotlariga byudjet mablag'lari oluvchilari bo'lgan taqdirda Buyurtmachi mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Ijrochiga Shartnoma muddati tugashidan 60 kum oldin yozma ravishda ma'lum qilmasa, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati xuddi shu muddatga va xuddi shu shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi.

31. Agar texnik qo'riqlash vositalari Buyurtmachingin aybi bilan ishdan chiqqan, kapital yoki joriy ta'mirlashni talab qilsa, biroq Buyurtmachi buni rad etsa, Ijrochi Buyurtmachi yetti kum oldin yozma ma'lum qilgan holda alohida ob'ektlarni qo'riqlashni rad etishi mumkin.

32. Buyurtmachi ketma-ket uch marta mazkur Shartnomaning 11 bandida ko'rsatilgan to'lovni belgilangan muddatda to'lama, Ijrochi mazkur Shartnomani Buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

33. Ijrochi ketma-ket uch marta post va patrol yo'nalishlarida qo'riqlash tartibini buzsa, Buyurtmachi mazkur Shartnomani Ijrochini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

34. Tomonlar mazkur Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishi to'g'risida 60 kum oldin yozma ravishda ma'lum qiladi.

35. Ob'ektning xususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur Shartnomaga qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

36. Mazkur Shartnoma kuchga kirgandan keyin 2021 yil "09" mart kungi 4466-sonli ikki tomonlama tuzilgan Shartnoma o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanin.

9-bob. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Ijrochi	Buyurtmachi
Xorazm viloyati Qo'riqlash boshqarmasi	Xorazm viloyati SEO va JSX boshqarmasining Urganch shahar bo'limi
Yuridik manzili: Urganch sh. Tinchlik ko'chasi 12 uy	Yuridik ay manzili: Urganch shahar O'zbekiston ovozi ko'chasi 60-uy
Tel: 228-68-38	Tel: 223-33-48
X/R: 21596000700193876001	X/R: 4014228603401707110054001
Bank: Markaziy bank Xorazm viloyati BB	MFO: 00833
MFO: 00027	STIR: 200913144
INN: 200408918	OKED:
OKED: 80200	

Xorazm viloyati Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i



B.M. Xasimov

Xorazm viloyati Qo'riqlash boshqarmasi YUT va MBIG bosh yuriskonsulti

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLY GWARDIYASI
XORAZM VILOYATI QO'RIQLASH BOSHQARMASI
YURIDIK HUCUQNI TAHSIS ETILGAN OTKAZILDI

20 yil " " da

6438

QAYD ETILGAN BILAN

1170

Xorazm viloyati SEO va JSX boshqarmasining Urganch shahar bo'limi boshlig'i



A. Ysmailov

"TASDIQLAYMAN"
Xorazm viloyati Qo'riqlash boshqarmasi
boshlig'i



B.M. Xasanov

2022 yil

Xorazm viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Urganch shahar qo'riqlash bo'limi TQM tomonidan Xorazm viloyati SEO va JSX boshqarmasining Urganch shahar bo'limining Xim.reaktivlar saqlanadigan xonasini qo'riqlash bo'yicha 2022 yil "28" yanvar dan

"KELISHILGAN"
Xorazm viloyati SEO va JSX
boshqarmasining Urganch shahar
bo'limi boshlig'i



A. Ismailov

2022 yil

SMETA-HISOB

№	Ob'ekt nomi	Ob'ekt manzili, telefon raqami	Xizmat turi va TQM nomeri	Toifra turi	Qo'riqlash ob'ekti soni	Qo'riqlash vaqti (soat)			Oylik qo'riqlash soati	Qo'riqlash narxi (so'm)			Bir oy uchun to'lov summasi (14=10*11+12*13)
						Ish kunlari	Bayram oldi va Bayram kunlari	Dam olish va bayram kunlari		Bir soat uchun	O'rnatilgan QYoOSV vositalariga qo'shimcha ko'rsatilgan xizmat (shartli belgi)	12	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
1	Xim.reaktivlar saqlanadigan xonasi	Urganch shahar O'zbekiston ovozi ko'chasi	TQM	tashvish	1	09:00-15:00	0	0	127	3128	0	0	397 256,00
	PRITOK-A GSM apparati uchun Sim karta (UzMobile tarif "M2M" 250 MIB)								1 dona	6310			6 310
		jami kalit soni:			1								403 566
		Jami:		Jami bir oylik uchun to'lov:									403 566

Izoh: Bir oylik qo'riqlash harajati: 403 566 (To'rt yuz uch ming besh yuz oltish olti) so'm

Xorazm viloyati Qo'riqlash
boshqarmasi MIB boshlig'i

O.K. Matniyazov

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

№ __

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi: “Qo'riqlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma”

3. Loyiha mazmuni: Xorazm viloyati Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshlig'i B.M.Xasanov va SEO va JSX Urganch shahar bo'limi boshlig'i A.S.Ismailov o'rtasidagi shartnomasi.


4. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining Xorazm viloyati boshqarmasi Urganch shahar bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2022-yil 21-yanvar kuni “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali Urganch shahar yuridik xizmat ko'rsatish markaziga yuborilgan.

Shartnoma loyihasi amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi 29.08.1998-yildagi 670-I-son “Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.11.2019 yildagi 930-son qarori, va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida huquqiy ekspertiza qilindi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:

2022-yil 24-yanvar



Sh.Razzaqov